

№16(82)

5.06.2026



ISSN: 3030-377X



International
scientific journal



Xalqaro
ilmiy jurnal



Международный
научный журнал

SCIENCE SHINE

International scientific journal

Articles are accepted
in the following areas:



SPECIFIC AND
TECHNICAL DIRECTIONS



SOCIAL DIRECTIONS



DIRECTIONS OF
PHILOLOGY



PEDAGOGIC
DIRECTIONS



NATURAL
SCIENCE



ABSTRACT

This international scientific journal
is created for new scientific research.



Google
Scholar

zenodo

CITE INDEX



INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SCIENCE SHINE

Issue 16(82)

05. 06. 2026



**International scientific
journal
"SCIENCE SHINE"**

Bosh muharrir:
Abdul Khalil Ahmadoughli

**Jurnal bir oyda ikki marta
chop etiladi.**

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2023-
yil 16-fevralda
№063974 sonli guvohnoma
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.**

ISSN 3030 – 377X

**Jurnaldan maqola ko'chirib
bosilganda, manba
ko'rsatilishi shart.**

**Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru**

Veb sayt:
<http://science-shine.uz/>

Tahrir kengashi:

Abdulkarimov Jamoliddin

Xo'jand davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi, Tojikiston

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Namangan Impuls tibbiyot instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi dotsenti

Masharipova Gularam Kamilovna

Falsafa fanlari doktori, professor

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Djo'rayev Mabruk Ma'murjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi

Davlat adabiyot muzeyi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li

Qo'qon universiteti dotsenti

Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna

*O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Madraximov Ilxomjon Sobirovich

Qo'qon davlat universiteti, filologiya fanlari doktori DSc

Sharipova Nargizaxon Abduqahhorovna

Qo'qon universiteti dotsenti

Azizov Olimjon Toxirovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasida dotsenti

Ismoyilov Ubaydulla Mamat o'g'li

*"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti" Milliy tadqiqot universiteti katta o'qituvchisi,*

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nurmanova Barno Axmadjon qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Magistratura" bo'limi boshlig'i, PhD

Xamraqulov Serobjon Soliyevich

Qo'qon davlat universiteti, PhD

Mamatxanov Azizxon Axramxonovich

*Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti Sholi genetikasi va
seleksiyasi laboratoriya mudiri, Q.x.f.d., (PhD)*

Nozima Mamadjanova Adxamovna

Namangan davlat universiteti Ingliz tili fani o'qituvchisi,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Abdug'aniyev Ahrorjon Ahadjon o'g'li

TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti katta o'qituvchisi,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
ijtimoiy - gumanitar fanlari kafedrasida katta o'qituvchisi*

siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori

Zaripova Rayima Sharifovna

*Toshkent farmasevtika instituti Organik sintez kafedrasida katta o'qituvchi
kimyo fanlari nomzodi*



XIV ASR 30-70-YILLARIDA KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR VA XORAZMDA QO'NG'IROT SO'FILARINING TAXTGA KELISHI

Ibragimova Gulzoda Farxadovna

Urganch Innovation Universiteti tarix fani o'qituvchisi

Maqolaning qisqacha mazmuni: Xorazm vohasida XIV asr 30-70-yillarida kechgan siyosiy jarayonlar va qo'ng'irot so'fiylari deb nom olgan sulolaning taxtga kelishi muammosi to'liq o'z yechimini topgan emas. Zero, mavjud yozma manbalar ma'lumotlari bu sulolaning Xorazmda XIV asrning 70-yillaridan Chig'atoy ulusining Amir Temur tomonidan tugatilishi voqealari ta'sirida vujudga kelganligi ta'kidlanadi. SHu jihatdan olganda, mazkur maqola shu mavzuga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda, Qo'ng'irot so'fiylari, Amir Temur, temuriylar, Xiva, Vazir, Tirsak, Yangishahar (SHemaxa-qal'a).

Аннотация: Проблема восшествия на престол династии известных как Кунгиратских суфиев в Хорезмском оазисе до конца не решена. Потому что, согласно имеющимся письменным источникам, эта династия была создана в Хорезме в 70-х годах XIV века под влиянием событий прекращения династии Чигатая Амиром Темуром. Однако еще до этого под влиянием золотоордынского государства кунгираты захватили власть в Хорезме, поэтому решить эту проблему можно будет с помощью археологических и нумизматических источников. В связи с этим данная статья посвящена этой теме.

Ключевые слова: Улус Чигатая, Золотая Орда, Кунгратские Суфи, Амир Тимур, Тимуриды, Хива, Вазир, Тирсак, Янгишехр (Шемаха-кала), Адак (Ак-кала), Кумкенд, Багдадик.

Annotation: The problem of the accession to the throne of the dynasty known as Kungirat Sufis in the Khorezm oasis has not been fully resolved. Because, according to the available written sources, this dynasty was created in Khorezm in the 70s of the 14th century under the influence of the events of the termination of the Chigatai dynasty by Amir Temur. However, even before that, the bells under the influence of the Golden Horde state were taking power in Khorezm, so it will be possible to solve this problem with the help of archaeological and numismatic sources. In this respect, this article is dedicated to this topic.



Key words: Ulus of Chigatai, Golden Horde, Kungrat Sufis, Amir Timur, Timurids, Khiva, Wazir, Tirsak, Yangishehr (Shemakha-kala), Adak (Ak-kala), Kumkend, Bagdadik.

KIRISH (INTRODUCTION). Xorazmda qo'ng'iro't so'fiylari sulolasi qachon mustaqil idora qila boshlaganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo, manbalar tahlili, ularning Xorazmda boshqarishi XIV asrning boshlaridan boshlaganligi xususida to'xtanga keluvchi ma'lumotlar mavjud. Jumladan, fors tarixchisi Rashiddin "Jome' ut-tavorix" asarida Jo'ji ulusi tarkibidagi qo'ng'iro't urug'iga mansub hamda ota tarafdan Chingizxonning xotini Burte Fudjen urug'idan bo'lgan Soljito'y mulki Xorazm yaqinida bo'lgan [13; 17, 271]. Soljito'y yana Oltin O'rda xoni To'xtaxonning onasi tarafidan bobosi hisoblangan. Bundan kelib chiqiladigan bo'lsa hamda Soljito'yning Xorazm atroflarida (Shimoliy Xorazm ham kirgan bo'lsa kerak) boshqarganini hisobga olinsa, qo'ng'iro't sulolasi Xorazmni deyarli XIV asrning boshlaridan boshqarib kelganlar. Bundan tashqari, Rossiyalik tadqiqotchilar, D.M.Ishoqov va I.L.Izmayilov, qozog'istonlik tadqiqotchi J. Sabitovlarning fikricha mashhur Xorazm amiri Qutlug' Temur ham aslida qo'ng'iro't urug'idan bo'lgan [14,154; 19,589].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Keyingi o'rta asrlar mualliflarining asarlarida Xorazm (ko'proq SHimoliy Xorazm) shu davrning eng boy va iqtisodiy mavqei baland hududlardan biri sifatida tilga olinadi. Ammo, mo'g'ul istilosidan keyin to Xiva xoni Abulg'oziygacha yozilgan yozma manbalar juda kamligi va borlarida ham ushbu muammo bir taraflama yoritilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xorazmning XIV asrning 30-70-yillari tarixi haqidagi yozma manbalarni ikki guruhga bo'lish mumkin: 1. Arab – fors tilidagi hamda eski o'zbek (chig'atoy) tilidagi manbalar. 2. Yevropa manbalari.

Bu mavzuga oid ma'lumotlar mavjud bo'lgan arab-fors tilidagi manbalari jumlasiga Rashiddin Fazlulloh [17], Ibn Battuta [9], Ibn Arabshoh [8], Hamdulloh Mustavfiy Qazviniy [12], SHahobiddin al-Umariy [20, 90-99], al-Bakuviy [2], SHayx al-Birzaliy [20,172-175], an-Nuviyriy [20, 152], Ibn Xaldun [20, 385-391] kabi arab-fors va temuriylar davrining Nizomiddin SHomiy [10; 16], SHarofiddin Ali Yazdiy [22], Abdurazzoq Samarqandiy [1; 11], Hofizi Abro'[5, 74-98], Xondamir [21,159] kabi mualliflar asarlarida ham XIV-XV asrlar Xorazm vohasi siyosiy tarixi, jumladan, qo'ng'iro't so'fiylari tarixi, ularning Amir Temur va Temuriylar



sulolasi bilan munosabatlari masalalari bilan bir qatorda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar ham o'z aksini topgan.

Qo'ng'iro't so'fiylarining Xorazmda taxtga kelishi muammosi masalasi bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Ammo, bu mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar chiqarilgan tadqiqotlar yo'q. Mazkur mavzu bo'yicha V.V. Bartold [3; 4], V.G. Tizengauzen [20, 90-99; 152; 172-175; 385-391.], B. I. Vaynberg [6, 104-114], N.Ibrohimov [9], I.V.Zaytsev [7, 238-255], D.M.Ishoqov va I.L.Izmayilov [14], J.Sabitov [18, 121-124; 19, 587-589], M.-Sh. Qodimiyazov [15] kabi tadqiqotchilar tadqiqotlar olib borganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).

Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

Xorazm vohasining XIV asrning 30-70-yillari tarixi yozma manbalarda ancha sust aks etgan hamda ancha kam o'rganilgan sahifalaridan biri hisoblanadi. Ammo, shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, Oltin O'rda tarkibiga kirgan Shimoliy qism Xorazm tarixi, uning Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan qismiga nisbatan yozma manbalarda kengroq aks etgan.

XIV asrning 60- yillarida Xorazm yangi mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdi. Biroq uning hukmdorlari Oltin O'rda xonlari bilan qarindoshlik iplari vositasida bog'langan edilar. Bu bevosita Xorazm voliysi, ko'zga ko'ringan amirlardan Nongadoy (musulmon manbalarida - Nanguday, Tangadoy Manguday, Namguday, Banguday, Yanguday, Venetsiya hujjatlarida – Nagadain) faoliyati bilan bog'liq. Muiniddin Natanziy va Nizomiddin SHomiy uni Xorazm hokimi deyishgan, SHarafiddin Ali Yazdiy esa, mazkur shaxsni qo'ng'iro't qabilasi yetakchisi bo'lgan, deb yozadi. Demak XIV asr 2-yarmida Xorazmda qo'ng'iro'tlar vakili hokimiyatni boshqargani ma'lum bo'ladi [22: 72].

Qo'ng'iro'tlarning kelib chiqishi haqida fanda aniq ma'lumotlar yo'q. Ba'zi tadqiqotchilar ularning etnik kelib chiqishi mo'g'uliy urug'iga mansub bo'lgan deb hisoblasalar, ba'zi tadqiqotchilar ularni turkiy urug'ga mansub deb hisoblaydilar. Ammo, yozma manbalarda qo'ng'iro'tlar Chingizxon mo'g'ul davlatida eng yuqori nufuzga ega qabila hisoblangan. Zero, Chingizxon va uning qarindoshlari qo'ng'iro't qabilasi qizlariga uylanganlar. Xullas, qo'ng'iro'tlarning kelib chiqishi aniq emas, faqat ularning Xorazm vohasida mo'g'ul bosqinidan keyin kelib o'rnamashganliklari ma'lum. Chunki, mo'g'ullar davlati tashkil topganda, qo'ng'iro'tlar Xorazm bilan birga Jo'chi ulusi tarkibiga kirgan edilar.



Qo'ng'irotlar vakillari nafaqat Xorazmning, balki butun Oltin O'rdaning siyosiy-ma'muriy tizimida malum mavqega egalik qilgan. Chunonchi, 13 yilda Oltin O'rda taxtini egallagan O'zbekxonning eng yaqin kishisi uning qarindoshi, qo'ng'irot Qutlug' Temur bo'lgan. Qutlug' Temurning ukasi Qrimdagi Azoq shahri hokimi edi [18, 121].

1335 yilda Qutlug' Temur vafot qilganidan so'ng amirlardan biri Nongadoy Xorazmda boshqara boshladi. Bu holat yuqoridagi fikr, ya'ni Qutlug' Temurning qo'ng'irot urug'idan bo'lganligi haqiqatga yaqinligini ko'rsatadi. Chunki undan keyin hokimiyatga albatta uning qarindoshi yoki urug'doshi kelishi tabiiy hol.

Ammo, Qutlug' Temurdan farqli ravishda Nongadoyning ham, umuman qo'ng'irot so'fiylari sulolasi vakillari ham dabdabali unvonlarga ega bo'lmaganlar (jumladan Qutlug' Temur: "Qudratli malik, arab va arab bo'lmagan hukmdorlar homiysi, dunyo va iymonning ulug'vorligi, islom va musulmonlarning buyukligi" unvoni bilan ulug'langan edi). Ibn Battutaga ko'ra, Nongadoy hatto buyuk amir unvoniga ega bo'lmasdan oddiy amir bo'lgan xolos. Uning vorislari esa so'fiy unvoni bilan boshqargan bo'lib, tadqiqotchilar fikricha, so'fiy nisbasi bu yerda faqat urug' yetakchilari ismiga qo'shib aytilgan bo'lib, agar mazkur hukmdor urug' vakili bo'lgan taqdirda ham boshqaruvchi huquqiga ega bo'lmagan bo'lsa so'fiy nisbasi qo'shilmagan [6, 109-110].

Husayn So'fi Jo'chi avlodidan bo'lgan Jonibekning singlisiga uylangandi, qizi Kabak xotun xonning to'rt xotinidan ikkinchisi edi. U Oltin O'rdada kechgan siyosiy vaziyatdan foydalanib o'z mavqeini mustahkamlab oldi.

Xorazmga voliy bo'lgan Husayn so'fi, 14 - asrning 60 - yillarida Oltin O'rdadagi siyosiy parokandalik chog'ida Xorazmda so'filar sulolasiga asos soldi. Ko'p o'tmay CHig'atoy ulusidagi tarqoqlikdan foydalanib, Xorazmning janubi-sharqiy qismini ham qo'shib oldi [22: 72]. Undan keyingi voqealardan Xorazmning Amir Temur davlatiga kiritilgani va XV asr davomida mazkur viloyat Temuriylar davlati tarkibida bo'lganini ko'ramiz. Xorazm shu davrda Amir Temur va Temuriylar davlati tarkibidagi viloyat bo'lishiga qaramasdan, uning tarixiy chegaralaridagi yaxlitligi saqlangan va kattagina hudud siyosiy- ma'muriy jihatdan Xorazm tarkibiga kirgan.

Ta'kidlab o'tilganidek, XIV asrning 60-yillarida Husayn So'fi Oltin O'rda xonligida avj olgan feodal nizolardan foydalanib, Xorazmda hokimiyatni qo'lga olgandi va o'z nomidan tanga ham zarb etdi. Temuriylar davri manbalarida u Xorazm hokimi (voliy) deb qayd etilgan. Agar Xorazm Jo'chi ulusi tarkibida viloyat

mavqaida ekanligi hamda uni hokim boshqarganini hisobga oladigan bo'lsak, u holda bu yerda o'sha an'ananing davom etganini ko'ramiz.

Amir Temurning Xorazmga beshinchi yurishida Xorazm hukmdori Sulaymon So'fi qochib To'xtamish huzuriga borgani va Qunduzchadagi jangda uning lashkar amirlaridan bo'lgani ma'lum [22: 119].

CHunonchi To'xtamishxon lashkari tarkibida Alibek qo'ng'iro't va Navro'z qo'ng'iro't ismli sarkardalar ham bo'lgan [22: 109, 130, 137].

Shunday qilib, Xorazmni qisqa muddat (1361-1388 yillarda) boshqargan qo'ng'iro't so'fiylari sulolasi hali bu bilan tugamadi. Bu sulola vakillari Xorazmda XVI asrning boshlarigacha yuksak mavqeni egallab kelganlar hamda XVIII asrning 80-yillariga kelib Xorazmda yana hokimiyatni egallaganlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, XIII asr 20-yillaridan to XIV asr 50-yillarigacha Xorazm vohasi mo'gullar tomonidan ikkiga bo'lib boshqarilgan: Shimoliy Xorazm Oltin O'rda davlati tarkibiga, Janubiy Xorazm Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan. Ammo, afsuski bu davrlar Xorazm tarixi juda sust tadqiq qilingan. Chunki yozma manbalar ma'lumotlari kamligi, mavzuni to'laqonli ravishda ochib berish imkoniyatini bermaydi. Shu jihatdan olganda, XIII – XV asrlar Xorazm siyosiy tarixi, Xorazmda qo'ng'iro'tlar sulolasining hokimiyatga kelishi hamda ular davrida Xorazm siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi masalalari kam o'rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матла'ус-садаи ва мажма'ул-бахрайи. / Масъул муҳаррирлар: А. Қайумов, Муҳаммад Али. – Т.: "O'zbekiston", 2008. Ж. II, Қ.1: 1405 – 1429 йил воқеалари. – 632 б.
2. Ал-Бакувӣ, 'Абд ар-Рашид. Китāб Талхис ал-ссāр ва 'аджā'иб ал-малик ал-каххāр: ("сокращение [книги о] "Памятниках" и чудеса царя могучего") / издание текста, перевод, предисловие, примечания и приложение
3. М. Буниятова. – Москва: Наука, 1971. – 192 с.
3. Бартольд В.В. Дорожник от Бистами до Куня Ургенча. – Соч. Т.3. – М.: Наука, 1963. – С.260-268.
4. Бартольд В.В. Сведения об аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времён до XVIII в. – Сочинения. Т.3. – М.: Наука, 1963. – 712 с.



5. Бартольд В.В. Хафиз-и Аbru и его сочинения // Сочинения, Том VIII. Работы по источниковедению. М.: Наука. 1973. – С. 74-98.
6. Вайнберг Б. И. К истории Кунгратских Суфи // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1957 г. М.: Наука, 1960. С. 104–114.
7. Зайцев И.В. К истории золотоордынских кунгратов в Хорезме и в Крыму: эмир Нангутай // Тюркологический сборник 2013–2014: Памяти С.Г. Кляшторного / ред. кол. Т.Д. Скрынникова (пред.), Т.И. Султанов, В.В. Трепавлов. – М. : Наука – Вост. лит., 2016. – С. 238-255.
8. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). –Т., «Меҳнат», 1992. – 326 б.
9. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга сайёҳати. –Т., «Шарқ баёзи», 1993. – 104 б.
10. Извлечения из “Зафар-намэ” Низам-ад-дина Шами // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники (далее МИТТ) // Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича и А.Ю. Якубовского. – С.514-523.
11. Извлечения из “Матла ас-са’дейн” Абд-ар-раззака Самарканди / МИТТ, т.I. – С.531-535.
12. Извлечения из “Нузхат ул-кулуб” Хамдаллаха Казвини // МИТТ, т.I. – С.506-511.
13. История Казахстана в персидских источниках. –Т.4. –Алматы: Дайк-Пресс, 2006. – 620 с.
14. Исхаков Д.М., Измайлов И.Л. Этнополитическая история татар (III - середина XVI вв.). Институт истории АН РТ. – Казань: Школа, 2007. – 356 с.
15. Кдырнязов М.-Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII-XIV веках. – Нукус: “Каракалпакстан”, 1989. – 176 с.
16. Низомиддин Шомий. Зафарнома.Форс тилидан ўтирувчи Ю.Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 544 б.
17. Рашид ад-Дин Сборник Летописей. т.1 ч. 2. –Москва: Наука, 1952. - 281 с.
18. Сабитов Ж.М. Кунгираты в восточном Дешти-Кипчаке в XIII–XV веках // Вестник Евразийского Национального Университета. Астана. 2012. №3(88). С. 121–124.
19. Сабитов Ж. М. Происхождение Кутлук-Тимура, эмира хана Узбека // Молодой ученый. – 2016, № 1 (105). – С. 587-589.



20. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Том 2. Москва; Ленинград: Академия наук СССР, 1941. – С.90-99, 152, 172-175, 385-391.

21. Хондемир. История монголов. От древнейших времен до Тамерлана / Пер. с перс. и авт. предисл., примеч. В. В. Григорьев. – СПб.: Типография Карла Крайя, 1834. – XII, 159 с.

22. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков. – Т.: Шарк, 1997. – 384 б.



MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	QO'QON XONLIGI TARIXIDA MOHLAROYIM (NODIRA)NING MADANIY VA ADABIY FAOLIYATI Sidiqjonova Hayriniso Ilhomjon qizi Abdullayev Ravshanjon	3
2.	EFFECTS OF PEER AND SELF-EVALUATION ON SPEAKING SKILL DEVELOPMENT N.B. Rasulova	7
3.	BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINING HOZIRGI HOLATI Eshpulatova Sevinch Shokir qizi	11
4.	CLASSROOM MANAGEMENT Kadirova Khurshida Bakhadirovna Reyimberganova Mehrixon Yunus qizi	17
5.	PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURINING MOHIYATI, MAZMUNI VA VAZIFALARI Eshpulatova Sevinch Shokir qizi	20
6.	PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE EMERGENCE OF STRESS, DEPRESSION, AND ROLE CONFUSION IN ADOLESCENTS Axmatova Guli Xurram qizi	24
7.	CLASSROOM INTERACTION, TYPES OF CLASSES, TYPES OF GROUPS Kadirova Khurshida Bakhadirovna Abdullayeva Sarvinoz Khamra qizi	29
8.	DEVELOPING STUDENTS' VOCABULARY LEARNING STRATEGIES Sodullayeva Gulmira Qo'ziboy qizi Kadirova Khurshida Bakhadirovna	32
9.	OBSERVING LEARNING AND TEACHING IN THE SECOND LANGUAGE CLASSROOM Kadirova Khurshida Bakhadirovna Iskandarova Shahlo Oybek qizi	35
10.	KIMYO SANOATI TRANSFORMATSIYASI: TAHLIL VA USTUVORLIKLAR Qudratxo'jayev Abduqaxxor Kudratxo'ja o'g'li Tohirova Muhlisaxon Darvishali qizi	38
11.	KOMPLEKS SONLAR Karimova Xalima Samatovna	50
12.	KO'PHADLAR Karimova Xalima Samatovna	58
13.	THE MASK OF VIRTUE: SOCIAL HYPOCRISY AND THE POOR IN CHARLES DICKENS' OLIVER TWIST Ergashaliyeva Gulasaxon Kenjaboy qizi	65
14.	MEHNAT MIGRATSIYASINING FARZAND TARBIYASIGA TA'SIRI Mamadaliyeva Muhliisa Olimjon	75
15.	TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA MUAMMOLARI Sultanbayev Elyorbek Doniyor o'g'li	82



16.	ВЛИЯНИЕ ПРОИЗВОДНЫХ 1.3.4-ТИАДИАЗОЛОВ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ РАСТЕНИЙ ATRIPLEX PRATOVII SUKHOR. В ЛАБОРАТОРНЫХ УСЛОВИЯХ Юсупова Муаззам Бахадировна.	91
17.	DEEP LEARNING MODEL BASED ON ACOUSTIC ANALYSIS OF VOICE TONALITY AND SPEECH RATE FOR STUDENT EMOTIONAL STATE DETECTION IN CLASSROOM ENVIRONMENTS Mardiev Muslimbek G'ulom o'g'li Yakhshibaev Doniyor Sultonbaevich	95
18.	O'QUVCHILARDA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI Ro'zmetova Yulduz Norimon qizi Rajabbayeva Sohiba Ibadullayevna	112
19.	QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA DUNYO ADABIYOTI Dilorom Toshboyeva Kamol qizi	115
20.	XIV – XVI ASRLAR XORAZM VOHASI SHAHARLARI Ibragimova Gulzoda Farxadovna	121
21.	XIII – XV ASRLAR OXIRLARIDA XORAZM VOHASIDA IJTIMOY-IQTISODIY AHVOL Ibragimova Gulzoda Farxadovna	129
22.	XIV ASR 30-70-YILLARIDA KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR VA XORAZMDA QO'NG'IROT SO'FILARINING TAXTGA KELISHI Ibragimova Gulzoda Farxadovna	140
23.	O'ZBEKISTONDA RAHBAR AYOLLARNING DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDAGI ISHTIROKI Elboyeva Shaxnoza	147
24.	STRATEGIES FOR THE ASSESSMENT OF STUDENTS' SPEAKING COMPETENCE N.B. Rasulova	154
25.	TEMURIYLAR DAVRIDA XALQARO MUNOSABATLAR Usmonov Jahongir Xujakulovich	160
26.	ИНТЕГРАЦИЯ НЕЙРОСЕТЕВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС МОДЕЛИРОВАНИЯ УРОКА РУССКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКСКОЙ ШКОЛЕ Азимова Камилла Мйдинжонова Набижонова Малика Бахтиёр кизи	164
27.	O'ZBEKISTONDA TA'LIM SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA XOTIN-QIZLARINING O'RNI Elboyeva Shaxnoza Bo'riniyozovna	174
28.	MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TARBIIYA YETISHMASLIGINING SABAB VA OMILLARI G'ulomova Dilgira Dilmurod qizi	181
29.	OZIQ-OVQAT SANOATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ROLI Obidov Madaminbek Maxmudjon o'g'li Mamadjonova Bibixonim Ulug'bek qizi	187
30.	SOVET AGRAR SIYOSATI VA O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI (1920–1980-YILLAR) Poyonov Behruz Rashid o'g'li Do'smurodov Shodiyor Sobirovich	191



31.	QOG'UZ CHIQINDISINI QAYTA ISHLAB BIOETANOL ISHLAB CHIQARISH Normurotova Zuhra Chori qizi	196
32.	OLTINGURGUTNI QISHLOQ XO'JALIGIDA QO'LLANILISHI Normurotova Zuhra Chori qizi	201
33.	INNOVATSION TA'LIM JARAYONI TUSHUNCHASIVA UNGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK OMILLAR Azimova Durdonaxon Dilmurodjon qizi	205
34.	KALTAMINOR MADANIYATINING ASOSIY XUSUSIYATLARI Qurbonova Sevara Sodiq qizi	209
35.	POLIMER CHIQINDILARDAN QAYTA SINTEPON TOLA OLIISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	217
36.	MILLIY XAVFSIZLIK STRATEGIYASI SHAKLLANISHINING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI Normurodov Akmal Akbarovich	225
37.	ASRLAR OSHA QADRIYATLAR BILAN BIRGA SHAKLLANGAN RAQSLAR Ergasheva Mohichehra Saidali qizi	231
38.	O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TIZIMI TARIXI(1945-2023 Y.Y) Ziyodullayeva Muyiba Amrillo qizi	237
39.	HARAKATDAGI SAN'AT: YULDUZ ISMATOVA IJODI Sevinch Quvvatova P.I.Tashkenbayev	244
40.	GLOBAL MAKONDA YOSHLAR MA'NAVIY QIYOFASI: ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYALAR VA IJTIMOIIY-MADANIY OMILLAR Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna,	248
41.	POSTMODERN JAMIYATDA MA'NAVIY BO'SHLIQ MUAMMOSI Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna	253
42.	CHILVIR SOCHLI O'ZBEK QIZI: MUNOJOYOT YO'LCHIYEVANING MAQOM SAN'ATIGA QO'SHGAN HISSASI Jomoliddin Tog'aymurodov	258
43.	KUNGABOQAR (HELIANTUHUS ANNUS L.) NAVLARIDA URUG' UNUVCHANLIGINI LABORATORIYA SHAROITIDA ANIQLASH Omonov Orif Xo'shboqovich Jumaniyozova Mohira Hamidjon qizi	263
44.	YUNUS RAJABIYNING MUSIQIY GAVHARLARI Jomoliddin Tog'aymurodov	268
45.	LAZER NURLARINING TURLI MUHITLARDAGI QO'LLANILISH JARAYONLARI Egamberdiyev Abdulbosit Abdulboqi o'g'li	273
46.	MAKTAB TIZIMIDA ELEKTRON KUNDALIKNI JORIY ETILISHINING IJOBIY TARAFI Rizvonova Sabrina	280
47.	AGROBIZNES KORXONALARIDA INNOVATSION JARAYONLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH Xo'jamova Latofat Asadullayevna	286
48.	TIL SIYOSATINING TA'LIM SOHASIDA MUSTAHKAMLANISHI Qurbonova Marg'uba	291
49.	O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDA HUQUQIY ASOSLARI Qurbonova Marg'uba Boltayevna	295



50.	TOJIKISTON RAQS SAN'ATI FENOMENI ("LOLA" DAVLAT RAQS ANSAMBILI) Hojiyev Ramizxon	300
51.	TEACHING SHORT STORIES WITH THE HELP OF DRAMA FOR SCHOOL CHILDREN Mohammad Rashidi Pakri Mahliyo Rashidova	303
52.	"O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI" FANINI O'QITISHDA TARIXIY SIMULYATSIYA VA ROL O'YNASH METODI G'anijonova Dilafruz Noiljon qizi	308
53.	RUS QISHLOQLARINING TASHKIL TOPISH XRONOLOGIYASI VA GEOGRAFIYASI Mo'ydinov Muhammadali Mahammadjon	313
54.	MAKROIQTISODIY TAHLILNING MILLIY IQTISODIY MUNOSABATLAR RIVOJIGA TA'SIRI Bozorov Muhammad Obloqul o'g'li	318
55	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ДЕПУТАТЛАРИ МАҲАЛЛИЙ КЕНГАШЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ (1991-2026) Абдулла Рузikuлов	322
56	NUMIZMATIK MANBALARNING MARKAZIY OSIYO DAVLATCHILIGI TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI Abdurashidova Sevinchxon Bahodirbek qizi	335
57	O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA INSON RUHIYATI VA MILLIY QADRIYATLAR IFODASI Abdurahmonova Mavluda Ibragimovna	344
58	JANUBIY XITOIY DENGIZIDAGI HUDUDIY MUAMMOLARNING ZAMONAVIY HOLATI Kazakbayev Hikmatilla Ismatullayevich	247
59	MIKROBIAL O'G'ITLAR YORDAMIDA YERYONG'OQ HOSILDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI Musurmonov Abror Alisherovich	354
60	ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATINING O'ZIGA XOSLIGI Abdurahmonova Mavluda Ibragimovna	363
61	BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI Omonturdiyeva Umida Alimardanovna	365
62	MUSIQA PEDAGOGIKASIDA "UMUMIY FORTEPIANO" FANINING O'RNI VA KONSEPTUAL AHAMIYATI Toshpo'lotova Zarinabegim O'kirbekovna	376
63	SAJDA AMALLARI VA ULARNING SURLARI Solijonov Saydullo	379
64	"MUSIQIY FOLKLOR NAMUNALARINI NOTALASHTIRISHGA DOIR" ("BOYSUN ALLASI" MISOLIDA) Tursunova Nargiza Rustamovna	383
65	JADIDCHILIK HARAKATIDA KO'P TILLILIK G'OYASI: BEHBUDIY QARASHLARI MISOLIDA	387



	Mannobova Munisa O'ktamjon qizi Ikramova I.R.	
66	CHINESE DIRECT INVESTMENT IN UZBEKISTAN'S RENEWABLE POWER GENERATION SECTOR: EXPANSION AND TECHNOLOGY COMPOSITION Li CuiHong	392
67	ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ КЛАССИФИКАЦИИ ДОКУМЕНТОВ ПО ВИДАМ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ И МЕЖВЕДОМСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИОННОЙ ПЛАТФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ Шахноза Рахимова	402
68	TEXNOLOGIYA TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI VA MAVJUD MUAMMOLAR Masharipova Xadicha Javlon qizi Bekimmatova Feruza Otanazar qizi	414
69	TA'LIMDA WIKI-TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI VA NATIJALARI Ayupov Ravshan Hamdamovich Shakarov Alisher Rasulovich	422
70	УСМОНИЙ ОЛИМИ АХИЗОДА ИЖОДИДА ЎРТА ОСИЁ ФАКИХЛАРИ ТАЪСИРИ ХУСУСИДА Зафар Нажмиддинов	433
71	ИҚРОФНОМАЛАРНИНГ ФИЛОЛОГИК ТАҲЛИЛИ Баходир Қобул	438
72	TURLI EKISH USULLARI VA KO'CHAT JOYLASHTIRISH ME'YORLARINING SHOLI NAVLARI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI S.S.Tog'aeva, S.Sh. Xayrullaev G.Shukurlayeva, Z.Botirov	442
73	UD CHOLG'USI: TARIXIY VA MUSIQIY NUQTAI NAZAR Iskandarov Shukurullo Ne'matullo o'g'li	448
74	KIBERZO'RAVONLIKKA QARSHI KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING MAFKURAVIY ASOSLARI VA UNING G'OYAVIY METODOLOGIK TAHLILI Usmonov Saidikromxo'ja Saidalievich	452
75	TARBIYACHILARNI IJODIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI Joniyeva Sitara Alisher qizi	458
76	LOVIYANING ASHADDIY ZARARKUNANDASI Raxmonqulova Lola Farxod qizi Umurzakov Elmurod	463
77	STUDY OF WOOL PRODUCTIVITY AND FIBRE QUALITY INDICATORS IN CROSSBRED OFFSPRING OF ANGORA GOATS AND LOCAL GOAT BREEDS Davronov Bakhtiyor Khasanovich Oltiboyeva Mohinur Elamonqizi Jummanazarova Marjona Kulsoat kizi	467



ESLATMA!

"SCIENCE SHINE" xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan ma'lumotlar va dalillarni haqqoniy va keltirilgan iqtiboslarni to'g'riligi hamda aniqligi uchun shaxsan mualliflar javobgardirlar!

NOTE!

The authors are personally responsible for the truthfulness of the information and evidence included in the international scientific journal "SCIENCE SHINE" and the correctness and accuracy of the quotations!



International scientific journal
SCIENCE SHINE

Issue 16(82)
05. 06. 2026

©Jurnal hajmi: 477 bet.

©Farg'ona viloyati, O'zbekiston Respublikasi

©<http://science-shine.uz/>